



QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyun oylari




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 7769 tani tashkil etib, 2022- yil 1-iyulga nisbatan 726 taga kamaygan (91,5 % ni tashkil etdi). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7751 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **8874,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,5 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **452,8** mlrd.so'mni (o'sish sur'ati **106,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7208,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1212,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,1 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	8 874,4	104,5	452,8	106,8	7 208,7	104,7
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	2261,5	100,3	256,4	97,9	1 820,3	98,0
Shahrisabz	800,8	104,0	13,5	71,9	764,1	104,5
<i>tumanlar:</i>						
G‘uzor	360,1	103,6	5,6	104,5	279,6	101,6
Dehqonobod	291,6	100,1	3,0	83,5	250,3	100,9
Qamashi	607,8	101,9	7,0	91,0	534,4	110,3
Qarshi	307,6	104,5	6,9	57,8	277,5	104,6
Koson	650,2	118,8	40,3	4,3 m.	561,8	109,1
Kitob	501,1	104,5	7,4	36,8	365,4	102,1
Mirishkor	318,2	102,0	2,8	90,0	295,3	98,7
Muborak	231,6	106,9	25,9	125,9	162,9	112,1
Nishon	410,6	111,5	3,4	82,7	301,7	100,6
Kasbi	375,7	103,2	13,9	3,0 m.	319,1	106,7
Ko‘kdala	232,7	102,2	8,4	-	178,5	151,8
Chiroqchi	674,9	104,0	24,7	87,3	410,8	121,3
Shahrisabz	354,1	116,2	27,4	157,9	257,4	106,5
Yakkabog‘	495,7	105,0	6,3	87,4	429,7	105,5

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Koson (**118,8 %**), Shahrisabz (**116,2 %**), Nishon (**111,5 %**), Muborak (**106,9 %**) va Yakkabog‘ (**105,0 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o’sish sur’atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi

(yanvar-iyun, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning mos davriga nisbatan **97,2 %** ni yoki **6079,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2023- yil yanvar-iyun oylari)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati **104,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **25,5 %** bilan **2261,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Muborak tumani **2,6 %** bilan **231,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7208,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,7 %**ga ko'paydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,8 %** ga o'sdi va **452,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **5,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Nishon (**99,2 %**), Mirishkor (**99,1 %**) Dehqonobod (**99,0 %**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **5,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**11,3 %**), Muborak (**11,2 %**), Shahrisabz (**7,7 %**), Koson (**6,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Viloyat bo'yicha	2 536,3	102,2

shaharlar:

Qarshi	7 776,9	98,1
Shahrisabz	5 507,9	102,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1 649,0	101,2
Dehqonobod	1 857,5	98,0
Qamashi	2 108,9	99,7
Qarshi	1 152,5	102,2
Koson	2 122,8	115,9
Kitob	1 806,3	102,6
Mirishkor	2 499,9	99,8
Muborak	2 514,3	105,2
Nishon	2 511,6	109,2
Kasbi	1 795,2	101,1
Ko'kdala	1 261,2	98,6
Chiroqchi	2 574,0	101,7
Shahrisabz	1 528,2	114,4
Yakkabog'	1 783,1	102,8


2023- yilning yanvar-iyun oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 536,3** ming so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,2 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi shahri (**7776,9** ming so'm), Shahrisabz shahri (**5507,9** ming so'm) va Chiroqchi tumani (**2574,0** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1212,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,1 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **610,2** mlrd. so'mni (**103,7 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **602,7** mlrd. so'mni tashkil etdi (**100,4 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1212,9	102,1	610,2	103,7	602,7	100,4

shaharlar:

Qarshi	184,9	136,7	184,9	136,7	-	-
Shahrisabz	23,3	114,6	23,3	114,6	-	-

tumanlar:

G'uzor	75,0	111,9	52,3	135,9	22,7	79,4
Dehqonobod	38,4	96,4	9,3	136,7	29,1	88,1
Qamashi	66,3	63,7	16,4	36,5	50,0	84,2
Qarshi	23,2	137,3	-	-	23,2	137,3
Koson	48,2	207,7	20,3	238,9	27,9	189,8
Kitob	128,3	126,4	89,2	141,0	39,1	102,3
Mirishkor	20,1	206,5	7,5	107,1	12,6	452,7
Muborak	42,8	84,2	20,3	62,4	22,5	122,7
Nishon	105,6	164,7	19,9	128,2	85,7	176,3
Kasbi	42,7	70,9	5,2	117,3	37,5	67,2
Ko'kdala	45,8	41,6	26,7	30,7	19,1	82,5
Chiroqchi	239,4	85,0	30,6	24,8	208,8	132,1
Shahrisabz	69,2	151,8	44,7	245,6	24,6	89,6
Yakkabog'	59,7	103,4	59,7	103,5	-	-

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **610,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm,yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**368,2** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 368,2
	Non va non mahsulotlari 93,3
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 22,8
	Tovuq go‘shti 38,0
	Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 14,2
	Sut va sut mahsulotlari (pishloq,brinza va boshqalar) 14,5
	Tuxum 12,6
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 5,4
	Ziravorlar 28,0
	Tuzlamalar 10,9
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 2,3
	Nooziq-ovqat tovarlari -

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatninng barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **602,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **424,3** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **111,3** mlrd. so'mni, otlar – **23,3** mlrd. so'mni, parrandalar – **3,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	278,4
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	114,3
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	31,6
 Qo'ylar	88,0
 Otlar	23,3
 Echkilar	63,8
 Kurka, o'rdak, g'oz	2,0
 Tovuqlar	1,3
 Quyonlar	-
 Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1502 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyul holatiga nisbatan 239 taga kamaygan va o'sish sur'ati 86,3 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 1502 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,7 %** ni tashkil etib, **242,9** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **96,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	242,9	102,3	8,0	59,1	234,9	104,9
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	97,0	99,3	7,3	57,2	89,7	105,7
Shahrisabz	12,5	103,3	-	-	12,5	103,3
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	11,2	101,7	0,7	93,6	10,5	102,3
Dehqonobod	4,5	108,8	-	-	4,5	108,8
Qamashi	4,1	100,9	-	-	4,1	100,9
Qarshi	8,4	100,6	-	-	8,4	100,6
Koson	7,3	103,3	-	-	7,3	103,3
Kitob	21,3	104,7	-	-	21,3	104,7
Mirishkor	2,4	105,4	-	-	2,4	105,4
Muborak	21,1	109,8	-	-	21,1	109,8
Nishon	22,0	103,1	-	-	22,0	103,1
Kasbi	4,4	101,5	-	-	4,4	101,5
Ko'kdala	3,8	105,4	-	-	3,8	105,4
Chiroqchi	8,7	103,3	-	-	8,7	103,3
Shahrisabz	5,3	102,7	-	-	5,3	102,7
Yakkabog'	8,9	107,0	-	-	8,9	107,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1736,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **105,6 %** o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **634,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **52,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **1101,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **255,7 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	1 736,1	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	1 483,0	85,4
Shahrisabz	46,5	2,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1,3	0,1
Dehqonobod	8,9	0,5
Qamashi	0,6	0,0
Qarshi	72,4	4,2
Koson	12,6	0,7
Kitob	18,7	1,1
Mirishkor	9,8	0,6
Muborak	19,1	1,1
Nishon	9,4	0,5
Kasbi	15,6	0,9
Ko'kdala	1,0	0,1
Chiroqchi	25,3	1,5
Shahrisabz	7,6	0,4
Yakkabog'	4,4	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (**1483,0** mlrd. so'm), Qarshi (**72,4** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**25,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2689,3** mld. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ga kamaydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2324,8** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **86,4 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Koson tumani (**113,1%**), Qarshi shahri (**105,6%**) G'uzor (**104,0 %**) Nishon (**103,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2260** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyul holatiga nisbatan **40** taga kamaygan, yoki **98,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **14** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2246** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	2689,3	105,7	264,6	188,4	1810,7	100,5
shaharlar:						
Qarshi	1 226,2	105,6	188,5	119,9	1 037,6	103,4
Shahrisabz	231,4	101,8	-	-	231,4	101,8
tumanlar:						
G'uzor	65,2	104,0	-	-	65,2	104,0
Dehqonobod	15,6	101,5	-	-	15,6	101,5
Qamashi	46,2	101,0	-	-	46,2	101,0
Qarshi	241,9	95,8	43,7	76,3	198,2	101,5
Koson	375,4	113,1	46,0	8,1 m.	329,4	100,9
Kitob	109,9	101,0	-	-	109,9	101,0
Mirishkor	6,8	102,2	-	-	6,8	102,2
Muborak	27,4	84,4	2,0	26,3	25,5	101,7
Nishon	20,1	103,9	-	-	20,1	103,9
Kasbi	123,2	3,2	84,1	-	39,1	101,3
Ko'kdala	10,8	-	-	-	10,8	-
Chiroqchi	77,1	59,0	-	-	77,1	59,0
Shahrisabz	43,1	98,0	0,1	5,4	43,0	102,2
Yakkabog'	69,0	103,2	-	-	69,0	103,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 75-221-44-28